

IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA ZONOFATSIYANING QO'LLANILISHI

Xamrakulova Guluzra Dilmuradovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya

Ushbu maqolada zoonofatsiya onomatopeyaning bir turi ekanligi misollar orqali yoritib beriladi. Inson ruhiyati va tabiat tasvirlaridagi uyg'unlikni ta'minlashda jonzotlarga taqlid qilish, ya'ni zoonofatsiyaning ahamiyati ko'rib o'tiladi.

Kalit so'zlar: onomatopeya, akustik denotat, fonetik komponent, lingvofonatsiya, zoofonatsiya, antropofonatsiya, naturafonatsiya, texnofonatsiya

Onomatopeya – biror-bir tovushga fonetik jihatdan taqlid qilish. Termin qadimgi yunon tilidagi onoma, atos – ism va poieo – yaratmoq so'zidan yasalgan. Onomatiyaga tovushga taqlid so'zlar bilan birga ulardan yasalgan boshqa so'z turkumiga oid so'zlar ham kiradi. Masalan, *kukku – kukucham, uv-uuv – uvullamoq, ma-maa – ma'ramoq*. Onomatiya ko'proq bolalar adabiyotida ishlatiladi. Masalan, *Qo'zichoq: - be-bee - dedi*. Bu bilan kichik kitobxonlarga faqat rasmlarga qarab emas, balki eshitish orqali ham ertak haqiqatini anglashga yordam beradi. Onomatopeyalar hayvonlar laqablarida ham uchraydi. Masalan, *miyovcha, vovvovcha*.

Tilshunoslar onomatoplarni turli nuqtai nazardan o'rganib, bir qancha turlarga ajratishadi. Masalan, S.V.Voronina akustik denotat tiplari bo'yicha, S.S.Shlyaxova fonetik komponentning qanday ma'noga egaligiga qarab, A.M.Gazova-Grinzberg ob'ektlarning ichki va tashqi tovush tiplariga qarab tahlil qilishgan¹. O'zbek tilidagi onomatoplarni tovushga taqlid turlarini o'rganishni maqsad qilib oldik. Badiiy matnda emotsional-ekspressivlikni ta'minlashda bilvosita tovushga taqlid onomatoplar katta ahamiyatga ega. Yozuvchi va shoirlar ma'lum obrazni yaratish maqsadida, faqat ularning

¹ Тишина Е.В. Русская онomatopeя: диахронный и синхронный аспекты изучения. Дисс.кан.фил. наук. -Волгоград, 2010. -С.9

o'zlariga xos bo'lgan xususiyatlarni ochishda, ma'lum vaziyatdagi inson holatini tasvirlashda turli tovushlarga taqlid so'zlaridan foydalanishadi.

O'zbek tilidagi onomatoplar tematik jihatdan besh turga bo'linadi:

- 1) lingvofonatsiya (insonning nutqi, uning o'ziga xos xususiyatlari, so'zlash manerasi, ovozning turlari);
- 2) zoofonatsiya (qushlar, hayvonlar, hasharotlar fonatsiyasi);
- 3) antropofonatsiya (kishilarning emotsional qiyqirig'i, mehnat bilan shug'ullanayotgan inson tanasidan chiqadigan har xil tovushlar);
- 4) naturafonatsiya (tabiat tovushlari, suv, shamol, tabiat hodisalarining tovushlari);
- 5) texnofonatsiya (texnik konstruksiyalar, uskunalar, signallar).

Iqbol Mirzoning she'riyatida biz onomatiyalarning lingvofonatsiya, zoofonatsiya, antropofonatsiya va naturafonatsiya turlarini kuzatishimiz mumkin. Ushbu maqolamizda zoofonatsiyaning Iqbol mirzo she'riyatida yuzaga chiqish holatlarini ko'rib o'tamiz. Shoir she'riyatida zoofonatsiya ham kam uchraydi. Masalan, "Gunoh" she'rida zanjirband itning harakati orqali "gunoh" so'zining ma'nosi ochib beriladi:

*Siniq oy sarg'ayib kezarkan ko'kda,
Tomlarda shu'lalar arpasin ilg'ab,
Zanjirini siltab, ayqirdi ko'ppak:*

- Xavf!

- Xavf!!

- Xavf !!!

Ayol miskin edi.

His qildi ayol –

Qaydadir erini o'pardir bir qiz.

Bir kechada quvrab, to'kildi nargis.

Tonggacha hovlida tinmadi zanjir,

*Ko'ppak sahargacha betoqat **hurdi**.*

Ayol ham gunohga qo'l berdi oxir –

Tushida birinchi sevgisin ko'rdi.

(Ko'zlaringga termulsaydim. 91-bet.)

Ushbu she'rda markaziy obraz zanjirlangan ko'ppakdir. Tabiatan itlarning juda sezgir bo'lishi, kelayotgan xavfni sezgan ko'ppakning zanjirini siltab "Xavf" deb ayqirishi, bu "xavf" borgan sari kuchayib borayotgani (undov belgisi) g'aroyib bir tarzda ifodalangan. Yolg'iz ayolning g'amiga sherik bo'lgan, gunohdan ogohlantirmoqchi bo'lgan ko'ppak tonggacha betoqat bo'lib hurib chiqdi.

Nazokatni qaydan olgan kapalak,

G'uvillab, nimadan so'ylaydi kaptar?

Nimaning tasviri, aying kamalak?

Sevgi deganlari yo'q bo'lsa agar.

(Ko'zlaringga termulsaydim. 203-bet.)

Kaptar tinchlik ramzi, uning g'uvillashi ham yaxshilikka, ezgulikkadir. She'rdagi hamma ijobiylik onomatopiyaning zoofonatsiya turi orqali ifodalangan, kapalak, kaptar, kamalak.

Ijodkor "Ismsiz she'r"ida qorong'u tunning tasvirini o'quvchining tasavvurida jonlantirishda jonzotlarning tovishini poetik nutqqa olib kiradi.

Chigirtka chirillab alla aytadi,

Tulki ingalashni o'rgatar

Mallarang bolasiga

(O'sha asar 26-bet.)

Chigirtkaning chirillashi, tulkining ingalashi, asosan, qorong'u kechaning hodisasi. Ijoddan ko'zlangan maqsad, farzandsiz ayolning iztiroblarini o'quvchiga yetkazish. Birinchi misrada ijodkor chigirtkaning chirillagan allasi kimga ekanligini ochiq qoldiradi-da, keyingi misrada bolasiga ekanligiga oydinlik kiritadi. Zoonofatsiya poetik nutqda asosan tabiat tasvirini, inson ruhiyatiga moslashishda qo'llaniladi. Bu yerda

chigirtkaning ham, tulkining ham bolasi bor. Ular baxtiyor. Ammo, befarzand ayol alla aytishdan, bolasining ingalasini eshitishdan mosuvo.

Xulosa qilib aytganda, zoonofatsiya bolalarning ham hatti-harakatlarini yoki insonlarning noodatiy qiliqlarini o'quvchi tasavvurida yuzaga chiqishi uchun muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Нурмонов А. Гап ҳақида синтактик назариялар. – Тошкент: О'қитувчи, 1988. –99 б.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати.– Тошкент: Akademnashr, 2010. – 397 б.
3. Иқбол Мирзо. Сизни куйлайман. – Toshkent: Шарқ, 2007. – 368 б
4. Иқбол Мирзо. Ко'zlaringga termulsaydim. – Toshkent: Sharq, 2020. – 246 б
5. Дегтарёв В.И. Основы общей грамматики. – Ростов, Рост. 1973. – С.255.
6. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирисқулов. М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – Б.224.
7. Тишина Е.В. Русская ономотопея: диахронный и синхронный аспекты изучения. Дисс.кан.фил. наук. -Волгоград, 2010. -С.9
8. Турсунова О.Ўзбек тилининг бирликларининг поэтик имкониятлари. Фил.фан. бўйича фал. доктори (PhD) дисс..Тошкент, 2019. -Б. 130